



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

### KREDIT TA'LIM TIZIMI SHAROITIDA TALABALARDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Bozorova Muazzam Hamid qizi

*Yangi asr Universiteti, Maxsus Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi*

**Maqola haqida ma'lumot**  
**Qabul qilingan: 24.06.2024**  
**Qayta qabul : 28.06.2024**  
**Saytda mavjud : 30.06.2024**

**Muallif (lar)**  
**M.H.Bozorova**

© M.H.Bozorova

**UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal**

Ochiq ma'lumotlar:  
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

**Maxfiylik bayonoti**  
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

#### Annotation.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiysi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiysi"ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi. Kredit-modul tizimi, bu — ta'limga tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasи va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir.

**Kalit so'zlar:** Kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, axborot texnologiya, zamonaviy ta'lim, psixologik imkoniyat, ta'lim jarayoni.

**Аннотация:** В «Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» предусмотрено внедрение цифровых технологий и современных методов обучения в процессы высшего образования, широкое вовлечение молодежи в научную деятельность, борьбу с коррупцией, инженерное дело. и технического образования определены конкретные задачи по увеличению доли студентов, обучающихся естественным наукам, по внедрению кредитно-модульной системы, увеличению доли производственной практики по профильным предметам, направленной на совершенствование практических навыков в учебных программах. Согласно «Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года, 85 процентов высших учебных заведений страны будет поэтапный переход на кредитно-модульную систему до 2030 года. Зуб планируется. Это свидетельствует о том, что практически все высшие учебные заведения страны в ближайшие годы начнут работать по кредитно-модульной системе. Кредитно-модульная система представляет собой процесс организации образования и представляет собой модель оценки, основанную на совокупности модульных технологий обучения и кредитной меры. Ее проведение в целом представляет собой сложный и системный процесс.

**Ключевые слова:** Кредитно-модульная система, самостоятельное образование, информационные технологии, современное образование, психологические возможности, образовательный процесс.

**Abstract:** In the "Concept of the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", introduction of digital technologies and modern teaching methods into higher education processes,

wide involvement of young people in scientific activities, fight against corruption, engineering and technical education specific tasks have been defined to increase the share of students studying in science, to introduce the credit-module system, to increase the share of practical training in specialized subjects aimed at improving practical skills in the curricula. According to the "Concept of the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on October 8, 2019, 85 percent of the higher education institutions in the country will gradually transition to the credit-module system until 2030. tooth is planned. This indicates that almost all higher education institutions in the country will start operating in the credit-module system in the coming years. The credit-module system is a process of educational organization and is an evaluation model based on a set of module technologies of education and a credit measure. Carrying it out as a whole is a complex and systematic process.

**Key words:** Credit-module system, independent education, information technology, modern education, psychological opportunity, educational process.

## KIRISH

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting ball asosida baholash;

- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lif jarayonida mustaqil ta'lif olishning ulushini oshirish;
- ta'lif dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi. Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovation ta'lif texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqr nazariy bilimlarni egallah, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir. Keling, shu o'rinda modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi. Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish printsipli asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishslash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi. Modulga asoslangan o'quv dasturlari

maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;
- talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limi baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;
- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lif berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat. Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalilanadi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi. Bu o'z navbatida oliy ta'limda taxsil olayotgan yosh kadrlardan o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lish bilan birgalikda o'zları egallayotgan sohalari bo'yicha mustaqil faoliyat yurita oladigan, zarur paytda mustaqil fikr yurita oladigan raqobatbardosh kadrlar bo'lishlarini talab qilmoqda. Ta'lif jarayonida talabaning mustaqil ta'lif olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta'lif masalasini qo'yilishi, yechish, o'z-o'zini nazorat qilish va baholashning yo'llarini talaba tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi vaqtida oliy ta'limda o'quv jarayoni mutaxassislarini har tomonlama shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ma'lum kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallah sharoitida talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha har tomonlama tizimli ish olib borishni talab etadi. Oliy ta'limda dars jarayoni ko'plab ma'lumotlar sig'imini egallahga, samarador, ijodiy

tafakkurni shakllantirishga, shaxsnинг intellektual salohiyatini rivojlantirishga, mantiqiy tahlil va ma'lumotlarni har tomonlama qayta ishlashga bo'yundirilmog'i lozim. Mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy talablarga binoan ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biri talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta'lim olish tizimida mustaqil ta'lim mazmuni uning asosini tashkil etadi. Mustaqil ta'lim mazmunini mustaqil ta'lim materiallari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyati tashkil etadi. Bunda o'qituvchi va talaba muloqoti asosiy rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim olishning asosiy vositasi - bu mustaqil ta'lim materiallaridir. Ular uzviy bog'langan tizim bo'lib, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan farq qiladi. Ularda teran va mazmundor uslubiy ko'rsatmalar, ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarish bloki, kasbiy tayyorgarligi jarayonida mustaqil o'qish mezonlari, uning o'z-o'zini mustaqil o'qishga yo'naltirib borishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, o'z-o'zini namoyon etishi va shaxsiy bilish faoliyati jarayonida o'z - o'zini baholay olishi uchun psixologik - pedagogik tavsiyalar mavjud bo'ladi. Mustaqil ta'lim materiallari o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, kompyuter dasturlari, audio va videomateriallar, mavjud an'anaviy darsliklardan foydalanishga doir tavsiyalar, axborotning boshqa manbalari ko'rinishida bo'ladi.

Mustaqil ta'lim materiallari bir necha belgilari bo'yicha tasniflanadi.

1. O'quv materiali tavsifiga ko'ra: bular darslik, o'quv va metodik qo'llanmalaridan olinadigan bilim va ma'lumotlar; qo'shimcha materiallar; namunaviy ma'ruza matni va boshq.

2. O'quv axboroti hajmiga ko'ra: O'rganilayotgan masalalar, o'quv fani mavzui bo'yicha axborotning to'la hajmi. Axborot texnologiyalari bilan bog'liq materiallar.

3. Foydalanish muddatiga ko'ra: Ta'lim oluvchilarga bir marta foydalanish uchun tarqatiladigan materiallar;

Mashg'ulotlarda bir necha marta foydalaniladigan materiallar. Mustaqil ta'lim olish jarayonida mustaqil ta'lim materiallari hamda ta'lim oluvchi va o'qituvchi muloqoti yetakchi komponentlar hisoblanadi. Bu ikki komponentning o'zaro ta'sir darajasi ochiq ta'lim modellarini tenglashtirishga yordam beradi. Ko'plab talabalarning ilgari mustaqil ta'lim materiallari bilan mustaqil ishslash muammosiga hech qachon duch kelmaganini e'tiborga olish lozim. Mustaqil ta'lim materiallari darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalaridan farqli o'laroq tuzilishi jihatdan murakkab xarakterga ega. Amaliyot ko'rsatadiki, ko'plab ta'lim oluvchilar tahsil jarayonida o'zlarining mustaqil ta'lim materiallari bilan ishlay olish ko'nikmalarini xolis baholay olmaydilar. Bu baholashlar hamisha shaxsiy (sub'ektiv) xarakterga ega. Bu jarayonning xolisligini qay tarzda ta'minlash borasida jiddiy muammo chiqadi. Ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim materiallari bilan mustaqil ishslash ko'nikmasini baholash mezonlarini ishlab chiqish, belgilash, asoslab berish va undan foydalanishni ko'rsatish lozim. Har bir ta'lim oluvchi o'zini o'zi baholashi va o'z faoliyatini to'g'rilashi yoki tashkil qilishga tayyorgarligiga muvofiq holda mezonlar tanlaydi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o'quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Talaba asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rnlarda o'qituvchi – talaba an'anaviy ta'limdagi suhbat ishtiropchilari savollar bilan murojaat qiladi. Talabalar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtiropchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda talaba

yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Hususan, amerikalik psixolog olimlar R. Karnikau va F. Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik – psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baxolash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish ta'kidlanadi. Pedagogik texnologiya bu ta'lim jarayoniga sistemali yondashuv bo'lib, unda ta'lim jarayonining tashkil etishda texnika va inson imkoniyatlari hisobga olinadi va ularning o'zaro munosabati ta'limning optimal formalari yaratilishiga zamin bo'ladi. Pedagogik texnologiyalarni quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin:

- ta'lim - tarbiya ishtirokchilari shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar;
  - hamkorlik faoliyati a'zolarining kasbiy tayyorgarligi;
  - ta'lim jarayoning maqsadi, mazmuni, mohiyati, amalga oshirish vositalari;
  - ta'lim jarayonini diffentsiyalashtirish;
  - ijodiylik.
- Ya'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %;

sodir bo'lgan voqe, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %;

sodir bo'lgan voqe, hodisa yokijarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %;

## **XULOSA**

O'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega. Talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operatsiyalari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. Bu o'qituvchining: nima uchun?, qanday maqsadda?, sababalari qanday?, natija nima uchun shunday bo'ldi? singari savollarning muhokamasi orqali amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, guman xolatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil holda topish va ularni yechish uchun o'z loyihalarini tuzish va himoya qilish talabalar tafakkurining ma'nodor va unumdon bo'lishiga xizmat qiladi. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay xilma-xil ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar. Ko'nikma-mashq qilish natijasida yuzaga kelgan xattiharakatlarning avtomatlashgan usuli. Fiziologik jihatdan ko'nikma bosh miyaning katta yarim sharlari po'stlog'ida hosil bo'lib, vaqtinchalik nerv bog'lanishlarining barkaror tizimining funksiyasini ta'minlaydi. Dinamik-stereotiplarni yaratish sharoitlari bir vaqtning o'zida avtomatlashgan akt bilan murakkab analitik-sintetik faoliyatini yuzaga keltiradi. Buning natijasida nafaqat ko'nikmalar, balki malakalar ham yuzaga keladi. Ta'lim jarayoni tashkil etishning o'ziga xos metodlaridan biri ishbop o'yinlardir. Ishbop o'yinlar munosabatlar

sistemasiini modellashtirish, faoliyat xarakteristikasini tashkil etishga yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi «Uzluksiz ta'lif tizimi uchun davlat ta'lif standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 5-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagи «Oliy ta'lifning davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta'lifning Davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.